

TIBBIYOTDA MULOQOTNING O'RNI

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi o'qituvchisi
Nazarova Zarnigor Raxmatjon qizi
TTA talabasi Hamidov Jonibek
TTA talabasi Qodirqulova Farangiz

Annotatsiya: Ushbu maqolada sohalarda nutq madaniyatining muhimligi, tibbiyotda so‘zning muhim vosita ekanligi, shifokorning o‘ziga xos muloqot san’ati, bu xususida olimlar fikrlari, tibbiy muloqotning o‘ziga xos turlari, muloqotning nutq vaziyatiga mos tarzda tanlanishi kerakligi bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: til, nutq, tibbiyot, shifokor, kommunikatsiya, shaxslararo muloqot, shaxs, xarakter.

Annotation: This article describes the importance of speech culture in fields, the fact that the word is an important tool in medicine, the specific art of communication of a doctor, in this regard, the opinions of scientists, the specific types of Medical Communication, the choice of communication in a way appropriate to the speech situation.

Key words: language, speech, medicine, doctor, communion, interpersonal communication, personality, character.

Аннотация: В этой статье объясняется важность культуры речи в областях, где слово является важным инструментом в медицине, конкретное искусство общения врача, мнения ученых по этому поводу, конкретные типы медицинского общения, которые следует выбирать в соответствии с речевой ситуацией общения.

Ключевые слова: язык, речь, медицина, врач, общение, межличностное общение, личность, характер.

Til inson aqliy, ruhiy va amaliy faoliyatining asosiy quroli, inson o‘zligini namoyon qila oladigan kuchdir. U birgina kommunikatsiya vositasi bo‘lmasdan, insonlarning odob, axloq ziynati ham hisoblanadi. Abdulla Avloniy aytganidek so‘z insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini o‘lchab ko‘rsatadurgan tarozusidir. Tildan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish, fikrni ravon, go‘zal va nutq vaziyatiga mos ravishda ifodalash, umuman olganda nutq madaniyati qoidalariga amal qilgan holda fikrnini bayon qilish har bir kasb egasi uchun birdek muhim. Tilshunos olim

Nizomiddin Mahmudov bu xususida shunday fikrlarni bildirgan: “Jamiyatning har bir a’zosi, har qanday mutaxassis, zamon bilan hamqadam har qanday kadr, eng avvalo, o‘z ona tilining sadoqatli sohibi bo‘lmog‘i lozim. Ona tilining chinakam sohibi bo‘lmoqning bosh sharti esa uning tuganmas imkoniyatlarini tugal egallamoq, ya’ni

fikrni mustaqil, ravon, go‘zal va lo‘nda ifoda eta olmoqdan iborat”. Yildan yilga tilga bo‘lgan e‘tiborning ortishi, har bir sohada nutq madaniyatiga bo‘lgan e‘tiborni kuchaytirish, tildan unumli foydalanish chora-tadbirlarini oshirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylantirib qo‘ydi. Shular orasida tibbiyot xodimlari nutqiga bo‘lgan e‘tibor ham muhim ahamiyatga ega. Chunki shifokor tomonidan ishlatilgan har bir o‘rinli so‘z bemorga jon ozig‘i, uning dardiga malham bo‘la oladigan, kasallikni yengish mumkin bo‘lgan eng oddiy, lekin asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shunday kasalliklar borki uning birinchi davosi so‘z. Shulardan biri xalqimiz orasida yilbug‘oz nomi bilan ataluvchi “soxta homiladorlik” kasalligidir. Soxta homiladorlik dardiga duchor bo‘lgan ayol bo‘lajak onada paydo bo‘ladigan hayz to‘xtashi, garmonlar o‘zgarishi, ko‘ngil aynishi, toksikoz, qorin kattalashishi kabi belgilarni boshdan kechiradi. Ayrim paytda ayol hatto homilasi qimirlaganini ta’kidlaydi. Unda kayfiyat o‘zgarishi, tez charchash, injiqlik kabilar kuzatiladi. Aslida esa ayol bachadonida hech qanday homiladorlikro‘y bermaydi. Shifokorlar bu kasallikning birinchi va eng oddiy davosi sifatida “ko‘p hollarda ayolni homilador emasligiga, bu tasavvuridagi holat ekanligiga ishontirishning o‘zi yetarli bo‘ladi” deb ta’kidlaydilar. Bu esa shifokorning nutqiy mahoratiga bog‘liq jarayon hisoblanadi. Shifokor bu kasallikning oqibatlari, homilaning yolg‘onligi, agar homila yo‘qligiga ertaroq ishonch hosil qilmasa bu kasallik yana bir necha bor takrorlanish holatlariga olib kelishini ruhiy zarba bermasdan yetkaza olishi kerak.

Umuman olganda, shifokor nutqiga bo‘lgan e‘tibor juda qadim zamonlardan beri mavjud bo‘lsada, hozirgi kundagi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy o‘zgarishlar, fantexnologiyaning shiddat bilan rivojlanishi, ulardagi yutuqlar, shu bilan birga tibbiy-biologik, tibbiy-profilaktik, tibbiykimyoviy, tibbiy-texnik tushuncha va atamalar sonining tez sur’atlarda o‘sib borishi, ularni xalqqa to‘g‘ri yetkaza olish tibbiyot xodimlari nutqiga yanada e‘tibor qaratish, ularning nutq boyligini oshirishni zamon talabiga aylantirib qo‘ydi. Inson borki, u qanaqadir xastalikka chalinsa shifokor huzuriga boradi, undan o‘ziga shifo, najot va tasalli istaydi. Shu onda bemor hayoti va mamoti shifokor qo‘lida bo‘lib qoladi. Mana shu holatda shifokor tibbiy bilimga ega bo‘lish qatorida, o‘ziga xos muloqot san’atining ham egasi bo‘lmog‘i darkor. Bemorga beriladigan birinchi yordam tibbiy ko‘nikmalar vositasida amalga oshirilsa, ikkinchi yordam esa shifokor va bemor o‘rtasidagi muloqotdir. Birinchi yordam munosib ko‘rsatilib, keyingisi to‘g‘ri berilmasa bemor holatida ijobiy o‘zgarishlar bo‘lishi qiyinlashadi. Bu fikrimizning isboti sifatida Alisher Navoiyning quyidagi so‘zlarini keltirishimiz mumkin:“Tabib o‘z fanining bilimdoni bo‘lishi, bemorlarga mehr-shafqat bilan muomala qilishi, asl tib ilmiga tabiat kelishmog‘i, donishmandlar so‘ziga rioya qilib, ularga ergashmog‘i, muloyimso‘z va bemor ko‘nglini ko‘targuvchi va andishali, xushfe’l bo‘lmog‘i kerak. Tabib o‘z kasbida mohir bo‘lsa-yu, ammo o‘zi badfe’l, beparvo, qo‘polso‘z bo‘lsa, bemorni har qancha muolaja qilmasin, baribir uning

mijozida o‘zgarish paydo qilolmaydi. Shirin so‘zli mohir tabib tan xastaligiga shifodir, Badfe’l, serjahl va savodsiz tabib esa el joniga balodir”. Shifokor bemor bilan muloqotga kirishar ekan bemorning qanday kasallik bilan chalingani, kasbi, ijtimoiy sharoiti, yoshi, gender xususiyati, tibbiy bilim darajasi, ruhiyatini kabilarni hisobga olishi, avvalo, muloqot madaniyatining eng muhim belgisi bo‘lgan bemorni tinglay olish qobiliyatiga ega bo‘lishi ham darkor. Kasalliklar turli bo‘lgani kabi ana shu kasallikka chalingan bemorlar bilan muloqot ham turlicha bo‘lishi kerak. Shifokor ruhiy kasallikka chalingan bemor bilan genekologik yoki onkologik kasallikka chalingan bemorlar bilan muloqot qilganday muloqot qila olmaydi. Turli xastalik bilan og‘rihan bemorlar ruhiyati bir-biridan umuman farq qilib, ba’zilari o‘ziga qo‘yilgan to‘g‘ri tashxisni ko‘tara olishsa, ba‘zilari ko‘tara olishmaydi, ba‘zilari esa savol-javob boshlanishi bilanoq vahimaga tushib qolishadi. Natijada Ibn Sino aytganidek kasalikdan vahimasi kuchli bo‘lib, ularda qo‘shimcha kasalliklar vujudga kela boshlaydi. Bu ilmiy isbotini topgan nazariya bo‘lib, bunday bemorlar ko‘pincha yurak-qon tomir kasalliklari, qandli diabet va asab kasalliklarini ortirib olishlari, ba’zi hollarda o‘lim holatlarikuzatilgan. Yoki yosh bola bilan kattalardek suhbat qurib bo‘lmaydi. Ana shundan kelib chiqqan holda, tibbiy muloqot turlarini quyidagicha keltirishimiz mumkin:

1. Kasallik bilan bog‘liq muloqot turlaril:
- 2 ruhiy kasallik bilan og‘rihan bemorlar bilan muloqot;
- 3 yurak-qon tomir kasalliklari bilan og‘rihan bemorlar bilan muloqot;
- 4 yuqumli kasalliklar bilan og‘rihan bemorlar bilan muloqot;
- 5 ginekologik kasalliklar bilan og‘rihan bemorlar bilan muloqot;
- 6 onkologik kasalliklar bilan og‘rihan bemorlar bilan muloqot;

7 surunkali kasalliklar bilan og‘rihan bemorlar bilan muloqot. Hozirgi kunda onkologik kasalliklar aholi orasida biroz keng tarqalayotgan kasallikklardan biri hisolanadi. Ko‘pchilik bemorlar bu kasallik nomini eshitishlari bilan qo‘rquvga tushib qoladilar. Salomatligidan shikoyat qilib kelgan bemorlar orasida o‘sma kasalligiga xos belgilar kuzatilsa, ularga onkolog ko‘rihan o‘tib kelish maslahati beriladi. Bu esa bemorlarda hadik hissini oshiradi. Shunday paytlarda shifokorlar xushmuomalalik bilan “bu oddiy tekshiruv ekanligi”, “unda xavfli o‘sma yo‘qligi”, “kasallikning oldi qancha erta olinsa, u rakka aylanmasligi”, “tekshuruvlardan o‘tmasa to‘g‘ri tashxis qo‘ya olmasligi” ni tushuntira olsa, bemorlarda hadik hissi yo‘qolib, shifokor tavsiyalarini to‘g‘ri qabul qiladi. Onkologik kasallikkarda ko‘pincha muolaja paytlarida ayollar sochi olib tashlanadi. Bu esa ayollarga biroz og‘irdek tuyuladi, ayollar husniga husn qo‘shib turuvchi sochlardan ayrilgisi kelmaydi, boshqalar oldida hijolatlik hissi uyg‘onadi. Shunda shifokor “To‘g‘ri, sochlaringiz juda chiroyli, lekin siz ularsiz ham go‘zalsiz. Hozir sizning sog‘ligingiz bundanda muhim. Hali oyoqqa turib ketsangiz, sochlaringiz hozirigidanda go‘zal bo‘lib o‘sadi ” deb, bemor ko‘nglini olishi, bu narsa

“fojia” emasligini uqtira bilishi kerak. Surunkali kasalliklar bilan chalingan bemorlar bilan muloqot qilish ham juda qiyin. Chunki ular doimiy ravishda shu kasallik bilan og‘riydarlar, uzoq vaqt davomida shifoxonalarda yotishadi, ular o‘z kasalliklaridan, shifokor berayotgan tavsiyalardan zerikib qolishadi. Ularning o‘zi “shifokor”ga aylanib qoladilar. Shu bilan birga tez asabiylashadigan, injiq bo‘lib qolishadi. Bunday bemorlar bilan ishlaydigan shifokorlardan katta sabr talab qilinadi.

2. Yosh bilan bog‘liq tibbiy muloqot turlari:

- kichik yoshdagи bolalar bilan tibbiy muloqot;
- o‘smir va o‘spirinlar bilan tibbiy muloqot;
- o‘rta yoshlilar bilan tibbiy muloqot;
- keksa yoshlilar bilan tibbiy muloqot.

Yosh ham shifokor bilan bemor o‘rtasidagi muloqotda muhim o‘rinda turadi. Masalan, kichik yoshdagи bolalar bilan muloqot qilish juda nozik bo‘lishi kerak. Uning keyingi tibbiy ko‘riklardan qo‘rquvga tushmasligi uchun bu muhim sanaladi. Chunki bu yoshdagи bolalar ruhiyati juda ta’sirchan bo‘lib atrofdagi kayfiyatni o‘ziga tezda yuqtiradi. Masalan, hali yurish yoshiga yetmagan bolalarda suv terapiyasi o‘tkazilib turiladi. Bolani suvdan qo‘rmasligi uchun

u bilan tinch, sokin holatda suhbat qurish lozim. Bola bilan doim shirin ohangda gaplashish, uni tinimsiz erkatalib, olqishlab turish lozim. Voy, buncha shirintoyim, barakalla”, “Qaranglar, qo‘lchalarini qanday chiroqli qimirlatayapti”, “Suv iliqqina, yumshoqqina, umboq bolamizni sog‘lom, baquvvat qiladi” va shunga o‘xhash so‘zlarni kanda qilmaslik kerak. Lekin zinhor qo‘pollik yoki baqir-chaqirga yo‘l qo‘ymaslik darkor.

3. Gender xususiyati bilan bog‘liq muloqot turlari:

- ayollar bilan tibbiy muloqot;
- erkaklar bilan tibbiy muloqot.

Bemordan uyalgan tabib tabib bo‘lolmaydi deyishsa-da, bemor tabibdan uyalishi, o‘zida bo‘layotgan holatlarni bemałol aytishga, tavsiyalarni eshitishga hijolat bo‘lishi mumkin. Shu paytda shifokor bemorning jinsini hisobga olgan holda u bilan muloqotga kirishi, aytishi uyatlari bo‘lgan so‘zlar o‘rniga xalq orasidan maqbullarini tanlay ola bilishi lozim. Masalan, “jinsiy a’zo” o‘rnida “nasliy a’zo”, “nasliy tizim organi”, “qin” o‘rnida “ost”, “jinsiy aloqa” o‘rinida “yaqinlik” kabi so‘zlarni qo‘llash, umuman olganda pardalab gapishtir maqsadga muvofiqdir. Yuqoridagilar qatorida ijtimoiy holatini hisobga olish shifokor uchun ham, qo‘yiladigan tashxis uchun ham juda muhim. Buyuk allolma Ibn Sino, Alisher Navoiy o‘z asarlarida muloqot jarayonida tinglovchining qaysi tabaqadn ekanligni inobatga olishi kerakligini aytib o‘tganlar. Tabaqa deyilganda boy-kambag‘alligi emas balki kasb-kori nazarda tutilgan. Ya’ni dehqon bilan dehqonday, hunarmand bilan hunarmandday so‘zlashmoq kerak. Ularning tibbiy ko‘nikmalarini ham inobatga olishlarini muloqotning yanada



tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, shifokorning to'g'ri va o'rinali muloqoti bemor hayoti uchun hal qiluvchi rol o'ynaydi.

ADABIYOTLAR:

1. Maҳмудов.Н. Тил.– Тошкент: Ёзувчи, 1990.
2. Сохта ҳомиладорлик. Даракчи. 2020, 16 март. 13-сон.
3. Mashaqqatli yo'lida yo'ldoshmiz. Saodat. 2014. 4-сон.
4. www.ziyouz.com. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq
5. Fayzulla og'li, U. B., & Ikromjon o'g'li, I. M. (2023). BO'LAJAK TIBBIYOT XODIMLARINI KASBGA TAYYORLASHDA PSIXOLOGIK TA'SIR USLUBLARINI O'RGATISHNING O'ZIGA XOSLIGI. Scientific Impulse, 1(8), 831-834.
6. Vohidjon, O. (2023). TIBBIYOT XODIMINING BEMORLARGA SO'Z ORQALI TA'SIR KO'RSATISHI. Scientific Impulse, 1(8), 827-830.
7. Baxtiyarovna, S. D. (2023). ART-TERAPEVTIK USULLARNI TIBBIYOTDA QO'LLASHNING HOS JIHATLARI. Scientific Impulse, 1(8), 781-787.
8. Nazarova, Z. (2023). ILK FARZAND KO'RGAN AYOLLARDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING IJTIMOIY PSIXOLOGIK HUSUSIYATLARI.
9. Raxmatjonqizi, N. (2023). KASALLIKKAMUNOSABATTIPLARIVAULARINGTAHLILI. Scientific Impulse, 1(6), 439-443.
10. Raxmatjonqizi, N. (2023). PSIXOLOGIKYETUKLIKNINGIJTIMOIY-PSIXOLOGIKOMILLARI. Scientific Impulse, 1(6), 436-438.
11. Raximova Roxat Boysoatovna, Raxmuddinova Durdonha Tolib qizi, & Ibragimova Nilufar Yuldasheva qizi. (2023). BOLALARDA PSIXOLOGIK TRAVMALARNING KELIB CHIQISH SABABLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI. Scientific Impulse, 1(8), 417–420
12. Raximova Roxat Boysoatovna, Jo'rayeva Muazzam Bahriiddinovna, & Abduvohidova Sayyora Sherzod qizi. (2023). O'QITUVCHINING PEDAGOGIK QOBILYATLARINI SHAKLLANTIRISH. KASBIY FAOLIYATDA NUTQ MADANIYATI VA NOTIQLIK SAN'ATI . Scientific Impulse, 1(8), 413–416
13. Raximova Roxat Boysoatovna, & Sodiqov Og'abek Zokir o'g'li. (2023). TA'LIM SOHASIDAGI DAVLAT SIYOSATINING TAMOYILLARI. AMALGA OSHIRLAYOTGAN ISLOHATLAR. Scientific Impulse, 1(8), 409–412.
14. Raximova Roxat Boysoatovna, Baratova Zulayxo Salim qizi, & Maqsudxo'jayeva Xadicha Mansur qizi. (2023). TALABA QIZLAR HAYOTIDA PEDAGOGIK BILIMLARNING O'RNI. Scientific Impulse, 1(8), 404–408.

